

## ANSAMBL VA ORKESTR IJROCHILIGINING O'XSHASH VA FARQLI TOMONLARI

*Andijon viloyati Paxtaobod tumani 69-IDUM  
Musiqa madaniyati fani o'qituvchisi  
Tursinova Maftunaxon*

**Anotatsiya:** Mazkur maqolada jamoaviy ijro uslublarida tarbiyaviy jarayonlar, ijrochilarning jamoaviy ijroda bir-birlarini eshitib chalish mahoratini oshirish yo'llari ko'rsatilgan. Mashq jarayonlari o'zini-o'zi boshqarish va tartibli bo'lish xolatlarida musiqani ahamiyati katta ekanligi yoritb o'tilgan. Ustoz-shogid an'analari musiqa ta'limida muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Ansambl, orkestr, madaniyat, xalq cholg'ulari, milliy cholg'u.

**Аннотация:** В данной статье показаны воспитательные процессы в коллективных стилях исполнения, пути совершенствования исполнителями навыков слышания друг друга в коллективном исполнении. Было отмечено, что в случаях самоконтроля и упорядоченности процессов обучения большое значение имеет музыка. Было отмечено, что традиции учителей-шогидов приобретают важное значение в музыкальном образовании.

**Ключевые слова:** ансамбль, оркестр, культура, Народные инструменты, национальный инструмент.

**Anotation:** this article shows educational processes in collective performance styles, ways in which performers improve the skills of hearing each other in collective performance. It has been highlighted that the importance of music in the cases of exercise processes being self-directed and organized. It has been noted that the master-shogid traditions are important in music education.

**Keywords:** ensemble, orchestra, culture, folk instruments, National Instrument

"O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlarida madaniyat va san'at, xususan, milliy musiqani rivojlantirishga doimiy e'tibor qaratib kelmoqda." Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Madaniyat - millatning yuzidir. Madaniyatni asrash - millatni asrash demakdir". Ushbu fikr milliy madaniyatni, shu jumladan, milliy musiqani saqlab qolish va rivojlantirishning naqadar muhim ekanligini yaqqol ko'rsatib turibdi. Shuningdek, Prezidentimiz "San'at va madaniyat xalqning dilini, uning ma'naviy olamini aks ettiradi. Biz kelajak avlodlarga boy madaniy merosimizni yetkazishimiz shart" deya ta'kidlaganlar. Bu esa Surxondaryo va

Qashqadaryo musiqa uslublarini o'rganish va kelajak avlodlarga yetkazish mas'uliyatini yanada oshiradi.<sup>1</sup>

Ansambl va orkestr deganda eng avvalo cholg'ulardan tuzilgan jamoaviy tuzilma ko'z oldimizga keladi. Bugungi kunda cholg'ularga bo'lган e'tibor va ularning ijrosidagi asarlarni tinglash madaniyati nechog'lik o'sganligini yoki nechog'lik pasayganini ko'rishimiz mumkun. Buni umumta'lim maktablari misolida kuzatadigan bo'lsak o'z ish faoliyatimiz davomida o'quvchi yoshlarimizni bugun milliy xalq cholg'ulariga bo'lган qiziqishlari anchagina sustlashib borganini kuzatib bormoqdamiz. Buning asosiy sabablaridan biri nimada degan savolga to'xtaladigan bo'lsak buning asosiy sabablaridan biri bugungi kundagi gadjetlar, o'yinlar, zamonaviylashgan elektron planshetlar va elektron o'yinlarning o'quvchi yoshlarimizga ta'siri. Shu bilan bir qatorda oilamizdagi jarayonlarda ham aynan buni kuzatishimiz mumkinki, biz ota onalar tomonidan ham farzandlarimizni nazorat qilish holatida ham o'zimiz ham bu musiqalarni tinglashdan ancha yiroqda qolayotganligimizni ko'rishimiz mumkin. Buning asosiy sabablaridan biri nimada deb o'ylaymiz. Keling XIX-XX asrni bir esga solib o'taylik XIX-asrda bunday holatlar bo'lganmi nima sababdan biz musiqaga bo'lган e'tiborimiz bugungi kunda yengil yelpi musiqalar bilan kifoyalanib qolmoqdamiz.

Xa aynan zamonaviylashib tezlashib borayotgan texnologiya davrida bizning oldimizdagи maqsadimiz faqatgina texnologiyalar bilan ish yuritish va aynan bajarayotgan ishlarimizni texnika bilan moslashtirib qo'yishimiz bilan chegaralanib qolyapmiz va mana shu holatda bolalarimizning qo'lidagi ham telefonlar ularning o'ynashlari va ularning bo'sh vaqtlarini mana shu bilan o'tkazishlari bilan kifoyalangani o'zimizga ham ma'qul kelib turmoqda. Bu eng asosiysi nafaqat murabbiy ustozlarni biz ota onalarning ham eng katta oldimizdagи vazifalarni qilmayotganlarimizdan biridir.

Aynan milliy cholg'ularimizga bo'lган e'tiborimiz pasayishi ham aynan mana shu yerdan boshlanayotganligini ko'rishimiz hech gap emas. Ana keling endi milliy cholg'ulardan qaysi birini bizni o'quvchilarimiz sevib ijro qiladi yoki tinglashadi. Ming afsuski bugungi kunda qaysi bir jabhada so'ramaylik o'quvchilarining so'zida faqatgina gitara. Aynan bu gitarada chalish mayli bu ham musiqa bu ham ijro buni ham albatta ijro qilish mumkin. Lekin bizning milliy cholg'ularimiz qayerlarda qoldi. Nima uchun biz aynan cholg'u ansambl orkestrlar haqidagi tushunchalarni o'quvchilarimizga tushuntirib berishni afzal ko'rmayapmiz. Balkim o'zimiz bilmasmiz biz pedagoglar musiqa fani o'qituvchilarining asosiy bugungi kunda oldimizdagи turgan vazifalardan biri aynan milliy cholg'ularni milliy o'zligimizni o'rganib chiqishdadir. Agar biz o'zimiz shuni bilmasak yoki Prezidentimiz aytgan uchtadan

<sup>1</sup> Alimova, D. (2010). O'zbekiston madaniyati tarixi. Toshkent: Sharq.

cholg‘u asboblarini ijro qilishni bilmasak ertangi kunimizda biz yoshlarimizga nafaqat uchta balki birgina cholg‘uni ham o‘rgatish metodikasidan anchagina yiroqda qolamiz. Shunday ekan o‘quvchilarimizni bugungi kunda aynan mana shu cholg‘ularga bo‘lgan qiziqishlarining pasayganligi ham biz o‘qituvchilarimizning cholg‘ularni bilmasligimiz yoki ana shunda ijro etish mahoratimiz pastligi tufayli ham biz mana shunday ishlardan mustasnomiz.

Mana shunday muammolarni birgalikda bartaraf qilish uchun o‘z ustimizda ish olib borib milliy cholg‘ularimizni astoydil o‘rganib agar bilmasak uni qo‘sishmcha tarzda avvalo ustozlar o‘zimiz malaka oshirish kurslarida o‘qigan holatda o‘qib turib keyingina darslarda ana shunday metodikani foydali taraflarini o‘quvchilarga o‘rgatishni oldimizga maqsad qilib qo‘yishimiz kerak. Shundagina o‘quvchilarni milliy cholg‘ularga o‘rgatamiz va jonli ijroni qanday qilib eshitish madaniyatini ko‘rsatib bera olamiz. Ansambl va orkestr degan so‘zlarni farqiga borish uchun ular avvalo chog‘uni qandayligini his qila olishi uni qo‘lda ushlab turib topshiriq va vazifani bajarish qandayligini bilishlari oldimizdagи turgan vazifalardan biridir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G.Sharipova, G’.Najmiddinov. Musiqa o‘qitish metodikasi (darslik). 2018.
2. D. Omonullayeva. Darsda xalq merosi o‘rganish. Boshlang’ich ta’lim 2003y.
3. Tursunbaevna, Botirova Xilola. "New approach to vocal-choral skills." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.4 (2021): 1638-1654.
4. Tursunbaevna, Botirova Xilola "New approach to vocal-choral skills." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.4 (2021): 1638-1654. [cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/...](http://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/...)
5. "New approach to vocal-choral. skills." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research. Journal 11.4 (2021): 1638-1654. Tursunbaevna, Botirova Xilola.
6. Khilola Tursunbaevna Botirova STUDENT, VIDYALANKAR INSTITUTE OF TECHNOLOGY [DOI: https://doi.org/10.36713/epra6721](https://doi.org/10.36713/epra6721)
7. Botirova Khilola Tursunbayevna, . (2023). WAYS OF DEVELOPING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF THE STUDENT - YOUTH THROUGH PERFORMING ART OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(06), 61–66. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-06-11>
8. [324am 2.EPRA JOURNALS-6742.pdf](https://www.epra-journals.com/epra-journals-6742.pdf)
9. Botirova, K. T. . (2021). Performance And Art. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(05), 465–474. <https://doi.org/10.37547/tajssei/Volume03Issue05-83>
10. Botirova Khilola Tursunbayevna, . (2023). WAYS OF DEVELOPING THE SYSTEM OF SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION OF THE STUDENT - YOUTH THROUGH PERFORMING ART OF UZBEK FOLK INSTRUMENTS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 4(06), 61–66. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-04-06-11>
11. Urozali Toshmatov "Folklor qo’shqlari" 2009 yil